# XALQ DEPUTATLARI YANGIQO'RG'ON TUMAN KENGASHI
# Q A R O R I

2022 - yil 31 - mart VI-34-39-6-90-K/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining 2014 yil 10 dekabrdagi 4/20-4- sonli qarorining 1-ilovasini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida.**

Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2021 yil 10 may kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilish bayoni qarorining 1-bandiga ko‘ra Yangiqo‘rg‘on tuman komissiyasi tomonidan taqdim etilgan jami 103 ta geografik ob’ektni qayta nomlash bo‘yicha taklifidan 103 ta geografik ob’ektning nomi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi talablariga muvofiq deb topilganligi, shu bilan birga, ekspertiza komissiyasi qarorining 2-bandiga ko‘ra 1 ta ob’ekt nomi (Baraka MFY) Yangiqo‘rg‘on tumani komissiyasi tomonidan qayta ko‘rib chiqishliligi ko‘rsatilgan.

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining 2014 yil 10 dekabrdagi 4/20-4-sonli qarorining 1-ilovasida anglashilmovchilik tufayli, “Baraka” MFY nomini “Barkamol” MFY deb qayta nomlangan. Aslida “Do‘ldi” MFYni “Barkamol” MFY deb qayta nomlash taklifi berilgan. Shu tufayli Davlat reestrida “Barkamol” MFY “Do‘ldi” va “Barkamol” nomlari bilan ikki marta qayd etilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda muhokama qilib xalq deputatlari tuman kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining maslahatchisi D.Boychaevning 2021 yil 26 iyuldagi 20-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2021 yil 10 may kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilish bayoni qarorining 2-bandi asos uchun qabul qilinsin.

3.Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashining 2014 yil 10 dekabrdagi 4/20-4-sonli sessiyasi qarorining 1-ilovasida keltirilgan “Baraka” MFY nomini “Barkamol” MFY almashtirish to‘g‘risidagi taklif bekor qilinsin.

4. “Baraka” MFY nomi o‘zgarishsiz qoldirilib “Baraka” MFY deb nomlansin.

5. Xalq Deputatlari tuman kengashining mazkur qarori 10 (o‘n) kun muddatda “Davergeodezkadastr” qo‘mitasiga geografik ob’ektlarining nomlarini davlat reestriga kiritish uchun taqdim etilsin.

6.Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **A.Najmiddinov**